

HARBIY BOSHQARUV TIZIMI – AMIR TEMUR SALTANATI HARBIY XAVFSIZLIGI TA'MINLANISHIDA MUHIM VOSITA SIFATIDA

Xodjixodjayev Farhodjon Mahmudjonovich,

O'zbekiston Respublikasi Harbiy xavfsizlik va mudofaa universiteti Bosh shtab fakulteti
Umumiy taktika kafedrası o'qituvchisi, tar.f.f.d. (PhD), podpolkovnik

Annotatsiya: Ushbu maqolada Sohibqiron Amir Temur saltanatida harbiy boshqaruv organining tashkiliy tuzilishi va uning boshqaruv faoliyati haqida gap boradi. Saltanat harbiy boshqaruvida retrospektiv tahlili "harbiy boshqaruvni o'tmishdagi va bugungi tuzilishi" kontekstida olib borilgan islohatlar, harbiy boshqaruv bo'g'inining ierarxiya ko'rinishi va uning faoliyati, shuningdek, boshqaruv shakli va undagi ko'rinish hamda Sohibqiron tomonidan joriy etilgan harbiy lavozimlar, ularning tashkiliy tuzilishi bugungi kun tushunchasi bilan qiyosiy tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: qurolli kuchlari, harbiy boshqaruv tizimi, mamlakat xavfsizligi, amiri ul-umaro, amir, bek, tuman boshi, ming boshi.

Аннотация: В статье рассказывается об организационной структуре органа военного управления и его управленческой деятельности в царстве Сахибкирана Амира Тимура. Ретроспективный анализ военного управления Царство в разрезе «прошлого и настоящего устройства военного управления», проведенных реформ, иерархического облика и деятельности военного управления, а также формы управления, а также введенных Сахибкираном военных должностей, их организационная структуры, проведен сравнительный анализ с сегодняшним пониманием.


Ключевые слова: Вооруженные Силы, система управления, военное управление, безопасность страны, эмир ул-умара, эмир, бек, глава тумана, глава тысячи.

Annotation: This article will talk about the organizational structure of the military management body and its management activities in the Kingdom of Sahibkiran Amir Temur. Retrospective analysis in the military administration of the kingdom the reforms carried out in the context of the "past and present structure of military management", the iearchy view and functioning of the military management link, as well as the form of government and military positions introduced by Sahibkiran, their organizational structure were analyzed in a comparative analysis with the concept of today.

Keywords: Armed Forces, management system, military management, national security, amir ul-umaro, amir, bek, district head, thousand head.

Inson o'z tarixi davomida Nutqli inson (Homo loquens)dan → Aqlli inson (Homo sapiens)gacha, Aqlli inson (Homo sapiens)dan → Tadbirkor inson (Homo habilis)gacha, Tadbirkor inson (Homo habilis)dan → Himoyani ta'minlovchi inson (Homo protector)gacha bo'lgan davr mobaynida insonning o'zi va yaqinlarining hayotini, o'zi istiqomat qiluvchi hududdagilar bilan do'stona munosabatda bo'lib, barqaror muhitni ta'minlashga, tinch-osuda hayot tarziga erishish ehtiyojini qondirish uchun mudofaa va xavfsizlikni ta'minlash bobida¹

¹ Samarov R. Milliy harbiy meros - jahon harbiy san'ati tizimida: konseptual yondashuv / R.S. Samarov // Harbiy ta'lim va fanda innovatsiyalar. Ilmiy-axborot jurnali. – 2021. № 2(11). – 1 b.



boshqaruv, harbiy boshqaruv, armiya, qo'shin boshqaruvi dastlabki mezon bo'lib xizmat qiladi.

Buyuk sarkarda, davlat arbobi sohibqiron Amir Temur saltanatda qo'shin (yangicha talqin – tashkil etgan Qurolli Kuchlari)ning boshqaruvini o'z davrining yuqori darajada, tizimli ravishda tashkil etilganligi uning harbiy sohada bosib o'tgan zafarli faoliyatlaridan ham anglab olish qiyin emas. U tomondan armiyada o'rnatilgan qat'iy tartib-intizom va o'ziga xos qonun-qoidalar bilan himoyalangan. Harbiy boshqaruv iearxiya ko'rinishiga ega bo'lib, Oliy Bosh Qo'mondon tomonidan berilgan farmon va qarorlar yuqoridan quyi pog'ona (amir)ga o'z vaqtida va belgilangan tartibda, maxfiy tarzda yetkazilishi, shuningdek, o'rnatilgan qonun va qoidalar asosida uning ijrosi ta'minlanishi hamda boshqaruv adolatligi bilan alohida ajralib turgan. Shuningdek, har bir amir yoki sardorga o'z mavqeyidan kelib chiqib, lavozim majburiyatlari va funksiyalari ishlab chiqilgan hamda mansabdor shaxslarga yuklatilgan.

Amir Temur armiyada boshqaruv tizimini tartibli, aniq bir mexanizmga bo'lishi va qonun asosida tartibga solinishini ko'zda tutgan. "Temur tuzuklari" asarida keltirilgan quyidagi misolarni keltirib o'tamiz:

"Amr etdimki, agar g'anim (lashkari) soni o'n ikki ming otliqdan kam bo'lsa, bu urushda amir ul-umaro (lashkarimga) sardorlik qilsin. Aymoq va tumanlardan o'n ikki ming otliq unga hamroh bo'lsin. Mingboshilar, yuzboshilar va o'nboshilarni ham o'ziga hamroh qilsin"².

"Amr etdimki, agar g'anim lashkari o'n ikki ming otliqdan ortiq bo'lsayu, lekin qirq mingga yetmasa, (lashkarimga) baxtiyor o'g'illarimdan biri sardor bo'lsin. Ikki beglarbegi qo'shunot, tumanot va ulusot amirlari hamda qirq ming otliqdan kam bo'lmagan sipoh bilan xizmatida hozir tursinlar"³.

"Shunday tuzuk bitdimki, agar yog'iy lashkari qirq ming otliqdan ortiq bo'lsa, beglarbegilar, amirlar, mingboshilar, yuzboshilar, o'nboshilar bahodirlar va boshqa sipohlar mening zafarli bayrog'im ostida bo'lsin va amru farmonimni kutsin"⁴.

Amir Temur tomonidan bildirilgan yuqoridagi fikrlarga asoslansak, harbiy boshqaruv tizimi iearxiya ko'rinishida, ya'ni, yuqoridan pastki pog'ona ko'rinishiga ega bo'lib, boshqaruv tizimida boshqaruv bo'g'inlarga bo'linib, qo'shin soni va uning mo'ljallanishidan kelib chiqib unga kimlar boshchilik qilishi alohida e'tiborga olingan, yuqori (devon)dan tayinlangan amir yoki sardorga o'ziga mos ravishda va kolat (hokimiyat) va cheklovlar belgilanganligini aytish joiz.

Amir Temur armiyani boshqarishda bir qator tartib qoidalarga rioya qilish orqali amalga oshirgan bo'lib, bular, qo'shin kiyimlari, otlarining rangi va ularga berilgan bayroqlarning xilma-xilligidan va bir-biridan ajralib turishidan keng foydalangan. Amir Temur tuzgan harbiy qo'shinida muntazam armiyaga xos bo'lgan ko'pgina belgilar namoyon edi: xususan, qo'shin son jihatdan aniq va puxta tashkil qilingan, uning jangovar tartibi jangdan-jangga takomillashib borgan, armiya o'z zamonasining ilg'or qurol va texnikasi bilan qurollanganligi, aynan bir turdagi qurol-yarog', aslaha-anjom bilan ta'minlangan qismlar bir-biridan kiyim-boshi, tutgan bayrog'i yoki tug'i orqali ham farqlangan⁵. Qo'shinlarni turli xil ko'rinishda jang maydoniga saflash, uni boshqarish uchun qulay sharoit yaratilganligi bilan farqlanadi.


Amir Temur harbiy boshqaruv tizimida musiqa va bayroq roli beqiyos bo'lib, boshqaruv vositasi sifatida qo'shinlarni joyda joylashuvi, harbiy yurishlari, muhoraba (jang, jangovar harakat)larda keng foydalangan. Otliq va piyoda qo'shinlari tarkibida ma'lum bir

² Temur tuzuklari. – Toshkent: "O'zbekiston", 2019. B. 146.

³ O'sha joyda. B. 151.

⁴ O'sha joyda. B. 155.

⁵ Razin Ye.A. Istoriya voennogo iskustva. T. II. – M., 1957. – S. 234.



bo'linmalar, ya'ni, orkestr va bayroqdorlar bo'linmasi shakllangan bo'lib, ularga harbiy boshqaruvi, qo'shin boshqaruvi bo'yicha alohida nazariy va amaliy mashg'ulotlar o'tkazilgan. Bunga tarixiy manbalarda juda ham ko'plab misollar keltirish mumkin. Temur tuzuklaridagi ma'lumotlarda "amr qildimki o'n ikki katta amirlarning har biriga bitta bayroq va bir nog'ora berilsin. Amir ul-umaroga bayroq va nog'ora, tuman tug'i va chortug' ... mingboshiga tug' va karnay, yuzboshi va o'n boshiga bittadan nog'ora, aymoq⁶larning (umoq) amirlariga bittadan burg'u, to'rt beglarbegining har biriga bittadan bayroq, nog'ora, chortug' va burg'u bersinlar" deyilgan.

Shuningdek, amirlarni qilgan xizmatlariga ko'ra rag'batlantirib borish (tug', nog'ora kabilar bilan) haqida gap boradi⁷. Ushbu ma'lumotlardan xulosa chiqaradigan bo'lsak, tug', nog'ora, burg'u, nafir, karnaylar, tabal, ko'raga, kus kabi jang musiqa asboblari⁸ turli darajadagi amirlarni, qo'shinlari bilan ko'rik vaqtida safga tizilganlarida, bir-biridan ajratib turish uchun ham berilgan bo'lishi mumkin.

Ushbu ma'lumotlardan xulosa chiqaradigan bo'lsak, tug', nog'ora, burg'u, nafir, karnaylar, tabal, ko'raga, kus kabi jang musiqa asboblari⁹ turli darajadagi amirlarni, qo'shinlari bilan ko'rik vaqtida safga tizilganlarida, bir-biridan ajratib turish uchun ham berilgan bo'lishi mumkin. Qo'shindagi har bir bo'linmaning o'zlariga xos (parol vazifasini bajaruvchi) oxangda ovoz beruvchi musiqa asboblari bo'lganligi va bu ovoz vositasida bir-birlari bilan aloqa bog'laganligi, kerakli ma'lumotlar almashinuvini amalga oshirganligi, shu bilan o'zaro hamkorlikka erishganligi shubhasizdir. Shunga ko'ra, bosh qo'mondon mahoraba (jangovar harakat, jang)lar mobaynida katta qo'shinni boshqarishda aniq bir tartib va qoidalarga rioya etganligi, bu tartib va qoidalarga barcha bir xil tenglikda bo'ysunishi hamda amalda ijrosini ta'minlashi bilan izohlash mumkin.

"Temur tuzuklari"da "G'anim lashkariga bir manzil¹⁰ yo'l qolguncha yurish qilib, dushman bilan ro'baro' kelgach, menga xabar yuborilsin"¹¹, - bu ko'rsatmalari bilan Oliy Bosh Qo'mondon va qo'shin sarkardalari o'rtasida ma'lumot almashinuvi evaziga zaxira qo'shinlarini jangga kiritish uchun barcha kerakli taktik hisob-kitoblarga tayangan holda jangga kiritish ko'zda tutilgan. Ya'ni barcha hisob-kitoblar bir manzil (30 km) hisobida amalga oshirilgan. Bu taktik hisob-kitoblar ishlab chiqish va zaxira qo'shinni jangga kiritish bugungi kunda ham mavjud bo'lib, faqat qo'shinda qurol-aslaha va tashqi ko'rinish o'zgargan xolos.

Amir Temur armiyada harbiy boshqaruv tizimida yozma buyruq va farmoyishlar ko'rinishidagi "yorliq"lardan ham keng foydalangan. Ularni choparlar orqali (bugungi kunda feld'eger¹² pochasi) qo'shin (favj sardorlariga) amir va sarkardalariga yetkazib, qo'shin (favj)ni muhorabaning qaysi vaqtida jangga kiritilishi nazarda tutilgan bo'lib, aniq vazifalar qo'yilganligi, shu bilan qo'shinda yagona boshqaruv tizimini tashkil etishga erishganligi, talabga barcha amir va sardorlar so'zsiz bo'ysunganligini alohida ta'kidlash joiz. Yagona g'oya ostida barcha qo'shin amirlari va sardorlarini birlashtirishga erishganligi, bir vazifani yakdil bajarishga safarbar eta olganligi uchun zafali g'alabalarni ta'minlaganligi aytish mumkin.

Bundan tashqari, agar qo'shin (favj) amiri va sardolariga yorliq (buyruq, jangovar farmoyish) yetib bormasidan oldin dushman tomonidan hujum yoki hamlasi paydo bo'lganda,

⁶ Aymoq-bir necha qarindosh urug'lar ittifoqi.

⁷ Temur tuzuklari. – Toshkent, 2005. – 100 b.


⁸ Bunday asboblarning jangda bajargan vazifalari turlicha (jangga chorlash, safga tizilish, xujumga o'tish, raqib qo'shinlarini dahshatga solish, ot-ulovlarini xurkitish, chekinish kabi) bo'lgan.

⁹ Bunday asboblarning jangda bajargan vazifalari turlicha (jangga chorlash, safga tizilish, xujumga o'tish, raqib qo'shinlarini dahshatga solish, ot-ulovlarini xurkitish, chekinish kabi) bo'lgan.

¹⁰ Bir manzil – 30 km masofaga teng.

¹¹ Temur tuzuklari. – Toshkent: "O'zbekiston", 2019. – B. 147.

¹² [nem. Feldjager] armiya yoki hukumatning o'ta muhim, ko'pincha maxfiy qog'oz-hujjatlarini tegishli joyga yetkazib beruvchi kurer.



yorliqni kutib turishga sharoit taqazo etmasa, qo'shinni harakatga keltirish va dushmanni yakson etish uchun qo'shin (favj) amiri yoki sardorining qarori bilan hamlani o'z vaqtida qaytarishni amalga oshirish vazifalari ham nazarda tutilganligini alohida e'tiborga olish zarur. Shuningdek, qo'shin (favj)ni boshqarishda o'ziga xos jihatlariga rioya etilishi e'tiborga olingan. Jumladan, boshqaruv tezkorlik, ishonchlilik, o'z va qtdalik va yashirinlik talablariga aniq va qat'iy rioya etilgan.

Bugungi kunda ham harbiy boshqaruvda xabarnomalar amashinuvi feld'eger pochta xizmatidan foydalanilishini e'tiborga olish zarur. Shuningdek, harbiy boqaruvda buyruq va farmoyishlar ham o'z ahamiyatini yo'qotgani yo'q.

Nizomiddin Shomiy "Zafarnoma" asarida "Alqissa, osoyishtalik nog'orasini qoqdilar. Har ikki tomon lashkari ajralib, o'z joyiga borib tushdi"¹³, – deb ta'kidlaydi. Amir Temur qo'shinining tarkibida nog'ora surnaylarning roli katta ahamiyat kasb etib, ular qo'shinni jangovar boshqarish uchun xizmat qilgan. Ularning sadolari ostida dushmanga nisbatan hujumni boshlash, hujumga o'tish, qo'shin favjlarini keraklisini birin ketin jang maydoniga kiritish, jangni boshlanishi va yakunlanishi uchun nog'ora va surnaylarning turli xil sadosi bilan farq qilgan. Shuningdek, qo'shinda har bir favjning mo'ljallanishi va qurollanishi zaruriyatidan kelib chiqib, turlicha "boshqaruv signallari" o'rnatilgan. Amir Temur armiyasi katta hajmda ekanligi, keng maydonda boshqaruvni uzluksiz, ishonchlilikini ta'minlashda nog'orachilar va surnaychilar tarkibidan musiqachilar bo'linmasini tuzib, muntazam qo'shin tarkibiga kiritgan.

Amir Temurning Hirot mamlakatini zabt etishida quyidagi ma'lumot keltiriladi, "kech kirgach, dovulu nog'ora qoqib va burg'u chalib ikki tomondan ham tong otguncha soqchilik qilindi"¹⁴. Jangovar harakatlar mobaynida qo'shin shaxsiy tarkibiga "musiq" ta'siri katta rol o'ynaganligi, nafaqat qo'shin boshqaruvi, shaxsiy tarkibni ruhlantirish uchun ham xizmat qilgan, balki, qo'yilgan soqchilarga ruhiy dalda bo'lganligi va aksincha dushman ruhiyatiga bosim o'tkazish uchun qo'llanganligini ko'rish mumkin.

Amir Temurning Sheroz tomonga yurishida 1393-yil 24-mart kuni Qal'ayi Safid qal'asiga yetib keladi. Nizomiddin Shomiyning "Zafarnoma" asarida "U g'oyatda mustahkam qal'a bo'lib, eni va uzunligi to'rt farsax (6-7 km)ni tashkil etardi. U bir baland tog' ustiga qurilgan, qal'aning atrofida juda ko'p oqar suvlar bor edi; uning burjlari balandlikda osmonga ko'tarilgan edi"¹⁵, – deb ta'kidlanadi. Amir Temurning qal'ani mustahkamligini ko'rib, uni bir zarbada maxf etish qiyilligini va qo'shin shaxsiy tarkibini ruhlantirish maqsadida, musiqaning kerakliligi hamda qanchalik ahamiyatga ega ekanligini mana bu misol bilan ko'rish mumkin. "... Nog'ora va karnay ovozlari tog' yuragini yordi. Qal'a ahli nihoyat darajada qo'rqinch va sarosimaga tushib qoldi"¹⁶. Amir Temur jangovar harakatlar vaqtida dushmanga ruhiy zarba berishning yana bir ko'rinishi bu musiq vositasida amalga oshirganligini ko'rish mumkin.


Amir Temur harbiy boshqaruvda qo'shin amirlari va sardorlarining qo'shinni boshqarish sifatlariga, ularni o'zi bo'ysinuvidagi askarlariga amalda namuna bo'lishiga ularni lavozimlarga tayinlash vaqtida alohida e'tibor qaratganini o'zining "Temur tuzuklari" asarida quyidagicha keltiradi. "Amr qildimki, qachonki asl sipohiylardan ish ko'rgan, jangu jadal bilan suyagi qotgan o'n kishi yig'lsa, bulardan qaysi birining shijoati, botirligi ortiqroq bo'lsa, qolgan to'qqistasi o'z roziligi va ma'qullashi bilan, uni o'zlari sardor qilib, otini o'nboshi deb atasinlar. O'n nafar o'n boshi jam bo'lsa, o'z ichlaridan eng ish ko'rgan, jang maydonlarida toblanib, tarjiba ortirgan, bahodirlikda nomi chiqqan birovini amir qilib, uni yuzboshi deb

¹³ Nizomiddin Shomiy. Zafarnoma. – Toshkent: O'zbekiston, 1996. B. 47.

¹⁴ O'sha joyda, 1996. B. 114.

¹⁵ O'sha joyda, 1996. B. 175.

¹⁶ Nizomiddin Shomiy. Zafarnoma. – Toshkent: O'zbekiston, 1996. B. 176.



nomlasinlar”¹⁷. Shuningdek, buning davomi sifatida “agar o‘n yuzboshi yig‘ilsa, amirzodalardan aqlli, shijoatli, bahodir bir kishini amir etib saylab, uni mingboshi desinlar va amiri hazora deya murojaat qilsinlar”¹⁸.

Quyi toifadagi amir (sarkarda) o‘zidan yuqori toifadagi sarkardaga so‘zsiz bo‘ysungan. Qo‘shinlarni boshqarish uchun o‘n ikkita sarkarda (amir) tayinlangan. Birinchi amir mingta jangchidan iborat qo‘shilmaga sardor bo‘lgan, ikkinchi amir – ikki ming jangchidan iborat ikkinchi qo‘shilmani boshqargan. Uch ming kishilik uchinchi qo‘shilmaga uchinchi amir sarkardalik qilgan. Shu tartibda o‘n ikkinchi amir olti mingdan – o‘n ikki minggacha askardan iborat qo‘shinga, ya‘ni, bugungi tushuncha bilan *birlashmaga* qo‘mondonlik qilgan.

Amirlik tartibiga qarab, bir amir ikkinchisiga noib (*o‘rinbosar*) etib tayinlangan, masalan birinchi amir ikkinchi amirning noibi, ikkinchi amir uchinchi amirning noibi, shu tartibda o‘n birinchi amir o‘n ikkinchi amirning noibi hisoblangan. O‘n ikkinchi amir *Amir ul-umaroning* noibi, Amir ul-umaro esa Oliy Bosh Qo‘mondon – Amir Temurning noibi etib tayinlangan. Qaysi bir amirga biror kor-hol bo‘lsa, o‘rnini uning noibi egallashi belgilangan. Lavozimlarning ketma-ketlikda tartibga keltirilishi, ularning bir-biriga bo‘ysunganligi, agar bir lavozimdagi amir kasal yoki vafot etsa uning o‘rnini o‘z noibi egallashi ushbu qo‘shin (bo‘linma)da komandir muntazamliligi aniq bir qonuniy tizim shaklida amaliyotga joriy etilganligini ko‘rish mumkin. Hech qaysi askar yoki sarkarda o‘z o‘rnini tashlab boshqa yerga ketish yoki boshpana izlashga intilmasdi.

Har bir qo‘shin, favj (bo‘linma) amiri (boshlig‘i)ga mansabidan kelib chiqib, vakolatlar qonuniy tarzda belgilangan bo‘lib, “Agar qaramlaridagi biron kimsa o‘lsa yoki qochib ketsa, o‘rniga yangi kishini tayinlash o‘nboshilarning ixtiyorida bo‘lsin. Shunga o‘xshash yuzboshilar o‘nboshilarni, mingboshilar yuzboshilarni tayin qilsin. ... urush kunlarida va saltanat ishlarini boshqarishda mingboshining hukmi yuzboshiga, yuzboshining hukmi o‘nboshiga, o‘nboshiniki (esa) qo‘l ostidagilarga joriy etiladi. Agar bu tuzukka qarshilik qilsalar jazoga tortilsinlar. Agar urush ishlarida kim kamchilikka yo‘l qo‘yar ekan, uni chetlatib, o‘rniga boshqasini qo‘ysunlar”¹⁹, - deb yozib qoldirgan.

Taniqli davlat arbobi va afsonaviy sarkarda bo‘lib shuhrat qozongan Amir Temur o‘z armiyasini sharoitga ko‘ra turli jismoniy mashqlar o‘tkazib chiniqtirib borgan. Natijada, u turli sharoitlarda, issiq-sovuqni pisand qilmay, cho‘lu-biyobonlarda ham, tog‘u-toshloqliklarda ham jang qila oladigan armiya yaratdi.

Amir Temur o‘z harbiy jamoasini mustahkamlashda kreativ fikrlaydigan va shijoatli harbiy xizmatchilarga alohida munosabatda bo‘lganligini qayd etadiki bu xususda “Kimning aqli va shijoatini sinov tarozusida tortib ko‘rib, boshqalarnikidan ortiqligini ko‘rsam, uni tarbiyatimga olib, amirlik darajasiga ko‘tarar edim. So‘ngra ko‘rsatgan xizmatlariga yarasha martabasini oshirib borardim” deydi. Masalaga bu kabi yondashuv armiya mustahkamligi uchun xizmat qilishi bilan birga, har bir harbiy xizmatchining mehnatini munosib rag‘batlantirishga, shu bilan birga ro‘y berishi mumkin bo‘lgan xatarli va keskin vaziyatlarda harbiy xizmatchilarda mustaqil qarorlar qabul qilish va kasbiy kompetensiyalarini shakllantirish uchun xizmat qilgan²⁰.


Amir Temur asosiy e‘tiborni harbiy kadrlarning tayyorgarligi va ularning har bir qo‘shin, favj (bo‘linma)ga tayinlangan sardorlarning “sardorlik” va boshqaruv qobiliyati, uning tayyorgarligiga katta e‘tibor qaratgan. Har bir bo‘linma boshlig‘idan botirlik, aql-farosatli bo‘lishi, qo‘shin (bo‘linma)ni mohirlik bilan boshqara olishi, hamda qo‘mondon

¹⁷ Temur tuzuklari. – Toshkent: “O‘zbekiston”, 2019. B. 98.

¹⁸ O‘sha joyda, 2019. B. 99.

¹⁹ O‘sha joyda, 2019. B. 99.

²⁰ Samarov, R.R. Sohibqiron Amirn Temurning harbiy san‘ati / R.R. Samarov, Yu.A. Axrorov, J.M. Xolmo‘minov, S.R. Sadridinov. – T.: Ma‘naviyat. 2022. B. 9.



(komandir)lik sifatlariga qarab lavozimlarga tayinlagan. Amir Temurning qo'shini, birinchidan, **tashkiliy tuzilishi xalq lashkari** bo'lgani, ikkinchidan – qo'shin o'nlik tizimida tuzilgan bo'lib, *tumanlar, mingliklar, yuzliklar* va *o'nliklarga* bo'lingan.

Amir Temur armiyasida har bir:

“Tuman” – o'n ming kishilik **qo'shilma** (*operativ-taktik qo'shilma*) bo'lib, o'nta minglik – “hazora” dan iborat bo'lgan;

“Hazora” – ming kishilik **qo'shilma** (*operativ-taktik qo'shilma*) bo'lib, o'nta yuzlik – “xoshun” iborat edi;

“Xo'shun” – bu yuz kishilik **bo'linma** (*asosiy taktik bo'linma*) edi va o'nta o'nlik – “ayl” dan iborat edi;

“Ayl” o'nta otliq yoki piyoda askardan iborat bo'linma (*birlamchi taktik bo'linma*) bo'lgan.

Amir Temur armiyaning qo'shin (bo'linma)larida boshqaruvni yengillashtirish va sifatini oshirish maqsadida, shuningdek, yuqoridagi fikrlarga tayangan holda qo'shin boshqaruvini uch bo'g'inda, ya'ni **strategik, operativ** va **taktik** bo'g'inlarga bo'lgan holda boshqarganligini ko'ramiz. Har bir boshqaruv bo'g'inida qo'shinning hajmi katta yoki kichik, uning vazifasidan kelib chiqib, boshqarish uchun o'z vakillarini “amir yoki sardor” ya'ni, o'g'illaridan tortib to amirlar, sarkardalar, tuman boshi, mingboshi, yuz boshi va o'n boshilarni boshliq etib tayinlagan.

Manbalarga tayangan holda aytish mumkinki, Amir Temur tuman boshi va undan yuqori lavozimlarga mansabdorlarni shaxsan o'zi tayinlagan. Amir Temur armiya qo'mondonlarining harbiy sohada chuqur bilimi, zaruriy tajribasi va talab darajasida mahorat va malaka, shuningdek, eng asosiysi uning sadoqatiga alohida e'tibor qaratgan. Tumanlarga Sohibqironning farzandlari, nabiralari hamda amir **Shayx Nuruddin**, amir **Hoji Sayfuddin**, amir **Shohmalik**, amir **Allohdod**, amir **Jahonshoh** singari nomdor lashkarboshilar rahbarlik qilgan²¹. Shu narsa xarakterliki, manbalarda “amir” termini faqat “tumanlar”, “mingliklar”ning boshliqlariga nisbatan emas, balki “qo'shunlar”ning boshliqlariga nisbatan ham ishlatilgan²². Qo'shin bir tumanmi yoki Temur qo'shinining hammasimi, - bundan qat'iy nazar hamma vaqt ma'lum bir tartib bilan yurishga chiqqan; bu tartib “murchil”²³ deb atalgan.

Agar biz ushbu matnga e'tibor beradigan bo'lsak, bunda bo'linma sardori “amir” unvoniga ega bo'lish uchun aniq mezon ishlab chiqilganligi va bu talablarga javob bergandagina ushbu unvon va bo'linma sardori bo'lishi, shuningdek, unvonni olgandan so'ng uni saqlab qolish uchun doimiy ravishda o'z ustida ishlash, izlanish, o'ziga belgilab berilgan vakolat va majburiyatlarni bajarishga sidqi dildan yondashgan holda xizmat qilishga intiltiruvchi mezon bo'lib xizmat qilganligini asoslaydi.

Talab qilingan mezonlar har bir sarkardadan sardorlik qobiliyatini oshirishga, keng fikr yuritishga va o'z bilimini doimiy ravishda yuksaltirib borishga qaratilganligini, shu bilan birga, ona-Yurtiga sadoqatini oshirishga hamda mahoraba va janglarda qo'shinni yoki bo'linmani mahoratli boshqarish imkoniga ega bo'lishi shakllanadi.


Yuqoridagi keltirilgan fikrlarga tayangan holda quyidagilarni **xulosa** o'rnida aytish mumkin:

Amir Temur o'z davri uchun zaruriy darajada armiyada mukammal harbiy boshqaruv tizim shakllantirdi. Saltanatda harbiy boshqaruv aniq bir tizim ostida, iearxiya ko'rinishida tashkil etilganligi, bu tizim bugungi zamonaviy armiyalarda qo'shinlarni boshqarish tizimidan hech qanday farq qilmasligi;

²¹ Dadaboyev H. Amir Temurning harbiy mahorati. – Toshkent: “Yozuvchi” nashriyoti. 1996. B. 16.

²² Sharafuddin Ali Yazdiy. Zafarnoma. – Toshkent: “Sharq”, 1997. B. 159, 164, 175 va boshqa betlar.

²³ Tizengauzen V. G. O'sha asar, II t., B. 159, 175.



boshqaruv tizimi asosan uch tamoyilga rioya etgan holda tashkil etilgan bo'lib, birinchidan, boshqaruv **qonun** va **qoidalarga** asoslanganligi, ikkinchidan, **rahbarning sifati**, uchinchidan, davlat miqyosidagi muhim yirik vazifalarni hal etishda barcha amaldor va maslahatchilarning fikrlari ham inobatga olinganligi;

u joriy qilgan harbiy unvonlar, mansab va lavozimlar, ularning darajalarini bildirib turuvchi kiyim-boshining ko'rinishi va rangi, qo'lga kiritgan davlat mukofotlari, harbiy kengashlarda tutgan o'rni va shu kabi bir qator vositalar boshqaruv tizimining aniq hamda puxta ishlab chiqilganligi;

qo'shin boshqaruvida bo'ysunuvchilarga jangovar vazifalar qo'yish usullari va vositalaridan keng foydalanilgan bo'lib, jangovar vazifalar shaxsiy muloqot tariqasida, choparlar orqali yorliq (jangovar farmoyish) yuborish usulida qo'yilganligi boshqaruvga qo'yilgan talablarga to'la javob berganligini isbotlaydi. Bundan tashqari, vaziyatni to'g'ri baholash va zudlik bilan tegishli qarorlarni qabul qilish uchun bo'ysinuvchi amirlar tomonidan choparlar orqali ma'lumotnomalar yuqori qo'mondonlikka yetkazilib turilgan. Bu esa qo'shinnlarni uzluksiz va ishonchli boshqaruvini ta'minlaganligi;

barcha harbiy yurishlarni zafarli g'alaba bilan yakunlanishiga qo'shinnlarni boshqarish tizimi asosiy omil bo'lganligi isbotlangan.

Foydalanilgan Adabiyotlar Ro'yxati

1. Mirziyoyev Sh.M. Birinchi navbatda bobolarimiz tarixini o'rganishimiz kerak [Elektron resurs] / Sh. Mirziyoyev. 2022. – URL.: <https://kun.uz/news>. Мурожаат санаси: 2025.09.21.
2. Samarov, R.S. Sohibqiron Amir Temurning harbiy san'ati / R.R. Samarov, Yu.A. Axrorov, J.M. Xolmo'minov, S.R. Sadriddinov. – T.: "Ma'naviyat", 2022. – 280 b.
3. Халилов, Р.М. Основы военного строительства и строительства вооруженных сил: учебник / Р.М.Халилов. – Т.: «Академии ВС РУ» 2020. – 207 с.
4. Temur tuzuklari. – T.: "O'zbekiston", 2019. – 184 b.
5. Karomatov, X. Amir Temur jahon tarixida / X.Karomatov. – T.: "Sharq", 2001. – 304 b.
6. Sharafuddin Ali Yazdiy. Zafarnoma. – T.: "Sharq", 1997. – 384 b.
7. Alimardonov, T. Amir Temur imperiyasi / T. Alimardonov. – T.: "Yangi asr avlodi", 2019. – 320-b.
8. Mannonov, B. Amir Temurning turkiy yorlig'i / B.Mannonov, G.Ostonova, Sh. Kamoliddin. – T.: "O'z R FAAK" 2005. – 50 b.
9. Tizengauzen, V. G. O'sha asar, II t., B. 159, 175.
10. Dadaboyev, H. Amir Temurning harbiy mahorati / H. Dadaboev. – T.: "Yozuvchi", 1996. – 96 b.
11. Amir Temur va uning jahon tarixidagi o'rni" mavzuidagi xalqaro konferensiya tezlari to'plami. – T.: "O'zbekiston", 1996. – 280 b.